O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2026-yil 25-sentabrdagi
365-son buyrug‘iga
2-ILOVA

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida O‘quvchilar Kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi (keyingi o‘rinlarda – Maktab) o‘quvchilarining o‘zini o‘zi boshqarish organi bo‘lgan O‘quvchilar kengashi (keyingi o‘rinlarda – Kengash) faoliyatini tartibga soladi.

2. Kengash – Muhammad al–Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab ijobiy tajribasi hamda “Milliy qadriyatlar asosida global fikrlaydigan lider shaxsni shakllantirish” mafkurasi asosida tashkil etiladi.

Kengash “Tengdosh-tengdoshga” tamoyili asosida qo‘shimcha ta’lim muhitini shakllantiruvchi tizim bo‘lib, o‘zini o‘zi boshqarish organi hisoblanadi.

3. Kengash o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda “Kelajak” markazining me‘yoriy hujjatlari, shuningdek, maktab Ustavi va ushbu Nizomga amal qiladi.

4. Kengash maktab direktori huzuridagi maslahat organi hisoblanadi hamda uning faoliyati maktab maslahatchisi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

5. Kengash yuridik shaxs maqomiga ega emas va mustaqil moliyaviy faoliyat yuritmaydi.

6. Ushbu Nizomning bir nusxasi maktab ma’muriyati tomonidan ro‘yxatga olinadi.

2-bob. Kengashning maqsadi va vazifalari

7. Kengashning maqsadlari quyidagilardan iborat:

o‘quvchilarda ona Vatanga muhabbat, uning ravnaqi uchun mardlik, fidoyilik, birdamlik va halollik tuyg‘ularini shakllantirish;

o‘quvchilarda o‘z qarorlari va xatti-harakatlariga javobgarlik, vazifalarni o‘z vaqtida va mas’uliyat bilan bajarish, vaqtni samarali taqsimlash, jamoa manfaatlarini hisobga olish kabi fazilatlarni shakllantirish;

bilimli, kreativ, keng fikrlaydigan, kompetent, mustaqil va o‘z fikriga ega o‘quvchilarni tarbiyalash.

8. Kengash quyidagi vazifalarni bajaradi:

o‘quvchilarda Yangi O‘zbekiston islohotlariga daxldorlik hissini oshirish;

o‘quvchilarda vatanparvarlik ruhida sadoqat, milliy g‘urur, faxr va iftixor tuyg‘ularini yuksaltirish;

o‘quvchilar tashabbuslarini ilgari surish va qo‘llab-quvvatlash;

o‘quvchilarni qo‘shimcha ta’lim muassasalariga jalb etishda faol ishtirok etish;

ijtimoiy, ekologik, kitobxonlik, madaniy va sport loyihalarini amalga oshirish;

maktab jamoasi, ma’muriyat va o‘quvchilar o‘rtasida ochiq muloqot ko‘prigini yaratish;

o‘quvchilar portfoliolarini boyitishga yordam beruvchi tadbirlarni tashkil etish;

inklyuziv muhitni qo‘llab-quvvatlash va o‘quvchilarning psixologik farovonligini mustahkamlash;

maktab imidjini oshirish va o‘quv madaniyatini targ‘ib qilish.

3-bob. Kengashning tarkibi va tashkiliy tuzilmasi

9. Kengash Kelajak lideri, yo‘nalish koordinatorlari, sinf vakillaridan iborat a’zolardan tashkil topadi.

10. Kengash tarkibi quyidagilardan iborat:

Kelajak lideri;

Yo‘nalish koordinatorlari;

Sinf vakillari (class representatives);

Klublar.

Kelajak lideri Kengash faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi va muvofiqlashtiradi. Maktab maslahatchisi bilan faol hamkorlik qiladi. O‘quvchilar orasidagi mavjud muammolar hamda ularning yechimi yuzasidan rahbariyatga taklif kiritadi. Kelajak lideri asosan kreativ yondashuvga ega bo‘lishi, xorijiy tillarning birida erkin so‘zlasha olishi lozim.

Yo‘nalish koordinatorlari 5-11-sinf vakillari o‘rtasidan ochiq ovoz berish yo‘li orqali saylanadi.

Ta’lim koordinatori bilimli, a’lochi o‘quvchilar orasidan saylanadi. Ta’lim koordinatori asosan o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini ko‘tarish, ta’lim jarayonlarida faol ishtirok etishini ta’minlash, ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Iqtidorli o‘quvchilar uchun fan va til o‘rganish bo‘yicha to‘garaklar tashkil etishda ishtirok etadi. Darslar sifati, o‘qituvchilar malakasi va o‘quvchilarga munosabati, o‘quvchilar orasidagi mavjud muammolarni o‘rganish maqsadida ular o‘rtasida so‘rovlar o‘tkazish va so‘rov natijalari yuzasidan maktab rahbariyatiga ma’lumot taqdim etib borish ishlarini tashkil etadi.

Madaniyat koordinatori iqtidorli, iste’dodli va ijodkor o‘quvchilardan saylanadi. Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlaydi hamda ta’lim muassasasining madaniy

tadbirlarini yuqori saviyada tashkil etishda faol ishtirok etadi.

Madaniyat koordinatori tengdoshlari o‘rtasida madaniy tadbir va tanlovlar tashkil etadi, milliy urf-odat, an’ana va qadriyatlarni asrab-avaylashga qaratilgan targ‘ibotlarni amalga oshiradi, “Turon maktab teatri”, “Iqtidor maktab ansambli”, “Jadidlar izidan” kabi tanlovlarini tashkil etishda ko‘maklashadi, xalq amaliy san’ati namunalari, o‘quvchilarning yaqin hududda joylashgan tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolar, muzeylarga tashrif buyurishini ta’minlashga yordamlashadi. O‘quvchilarni musiqa va san’at maktablariga yo‘naltirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va mazkur ta’lim muassasalari faoliyatini targ‘ib qilishni tashkil etadi.

IT va sun’iy intellekt koordinatori axborot texnologiyalari, sun’iy intellekt va dasturlash sohasiga qiziquvchi o‘quvchilar orasidan saylanadi.

IT va sun’iy intellekt koordinatori Kengash faoliyatini raqamlashtirish, maxsus platformalar (bot, sayt, google forma) yaratish kabi ishlarni tashkil etadi. “Kelajak” markazlarining ta’lim muassasasida tashkil etilgan ushbu yo‘nalishdagi tarmoq to‘garaklari faoliyatini rivojlantirishga ko‘maklashadi.

Sport koordinatori sportning biror turi bilan muntazam shug‘ullanadigan, sog‘lom turmush tarziga qat’iy rioya qiladigan o‘quvchilardan saylanadi.

Sport koordinatori o‘quvchilar o‘rtasida sportni keng targ‘ib qilish, ommalashtirish va sog‘lom turmush tarzini qaror toptirishga qaratilgan ta‘sirchan ishlarni amalga oshiradi. Sportning biror turi bilan muntazam shug‘ullanishi lozim. O‘quvchilarni bolalar va o‘smirlar sport maktablariga yo‘naltirish va mazkur ta’lim muassasalari faoliyatini targ‘ib qilishni tashkil etadi.

Ekologiya koordinatori tabiiy fanlar bo‘yicha bilimdon, shuningdek, faol jamoatchi o‘quvchilardan saylanadi.

Ekologiya koordinatori ekologiyani asrash va salomatlikni targ‘ib etadi, chiqindilarni kamaytirish yoki qayta ishlashga qaratilgan aksiyalarni tashkil etadi, ilmiy-amaliy konferensiyalarda qatnashadi, tengdoshlari o‘rtasida atrof-muhit va salomatlikni asrashga oid ommaviy tadbirlarni o‘tkazadi.

Bunda, “Eko-maktab” loyihasi a’zolari koordinatorlarga yordamchi bo‘lishiga ruxsat etiladi.

Media koordinatori ijodkor, qalami o‘tkir va notiq o‘quvchilardan saylanadi. U doim ijod qilish, voqea-hodisalarni tahlil etish, munosabat bildirish, yangilik va axborotlarni tayyorlash, tarqatish ishlari bilan shug‘ullanadi.

Media koordinatori ijodkor o‘quvchilardan media sohasiga qiziquvchi o‘quvchilar jamoasini shakllantiradi. Umumiy o‘rta talim muassasasi hayoti, Kengash faoliyatini yoritib borish, ta’lim muassasasi matbuot xizmati faoliyatini yo‘lga qo‘yish hamda yuritish, bolalar jurnalistikasini ommalashtirish, gazeta, jurnal

hamda saytlarda maqolalar chop etish, ta’lim muassasasi burchaklarini tashkil etishda tashabbuslar koʻrsatadi, maktab radiosi faoliyatini yoʻlga qoʻyadi.

Ijtimoiy tashabbus koordinatori tashabbuskor va faol oʻquvchilardan saylanadi. Oʻquvchilarning ijtimoiy gʻoya va tashabbuslarini aniqlash, qoʻllab-quvvatlash va amalga oshirishga koʻmaklashadi.

Ijtimoiy tashabbus koordinatori oʻquvchilarni jamoatchilik faoliyati va foydali loyihalarga jalb etadi, tashabbuskor oʻquvchilarni birlashtirib, ijtimoiy loyihalarni tashkil etish va amalga oshirish jarayonini muvofiqlashtiradi.

Sinf vakillari (class representatives) Kengashning eng quyi boʻgʻini hisoblanadi. Sinf vakili har oʻquv yili boshida sinf oʻquvchilari tomonidan saylanadi.

Klublar Kengashi qoshidagi tuzilmalar (klub va boshqalar) faoliyatini tashkil etishga ta’lim muassasasining tegishli mutaxassislik boʻyicha oʻqituvchi-pedagoglari jalb etiladi hamda ularning faoliyati maktab maslahatchisi tomonidan muvofiqlashtiriladi. Klublarga barcha oʻquvchilarni qiziqishidan kelib chiqib keng jalb etilishi mumkin.

11. Kengashning tashkiliy tuzilmasi mazkur Nizomga asosan ilova bilan tasdiqlanadi.

4-bob. Saylov tizimi

12. Kengash tarkibi har yili 1-30-oktabr kunlari saylov yoʻli bilan shakllantiriladi. Kengash tarkibiga kirish istagi boʻlgan nomzodlar (sinf vakillari) maktab maslahatchilariga yozma ravishda ariza topshiradi va saralanadi.

13. Kengash a’zoligiga 5–11-sinflar oʻquvchilari qabul qilinadi.

14. Kengash saylovini oʻtkazish tartibi Respublika “Kelajak markazi”ning tegishli buyrugʻi bilan tasdiqlanadi.

5-bob. Kengash a’zolarining huquq va majburiyatlari

15. Kengash a’zolari quyidagi huquqlarga ega:

maktab hayotiga oid taklif va tashabbuslarni ilgari surish;

oʻquvchilar manfaatlarini ma’muriyatga yetkazish;

“Kelajak” markazlari tomonidan tashkil etiladigan loyiha, tadbir, aksiya va sport musobaqalarida ishtirok etish;

oʻz faoliyatiga oid ma’lumotlarni olish va tahlil qilish;

16. Kengash a’zolari quyidagi majburiyatlarga ega:

maktab ichki tartib qoidalariga rioya qilish;

oʻquvchilar uchun namuna boʻlish, akademik halollikni saqlash;

maktab oʻquvchilari fikrini doimiy oʻrganib borish va rahbariyatga taklif kiritish;

ijtimoiy tarmoqlarda maktab hamda “Kelajak” markazi imidjini

shakllantirishda faol qatnashish;

o‘quvchilar Kengashi a’zolari “Kelajak” markazining bevosita targ‘ibotchilari bo‘lib, faqatgina uning faoliyati, loyihalari va imkoniyatlarini o‘quvchilar o‘rtasida keng targ‘ib qilishi lozim;

mahalliy va xalqaro olimpiadalarda ishtirok etish istagida bo‘lgan o‘quvchilarni aniqlash va o‘z vaqtida maktab maslahatchisiga bildirib borish;

O‘zbekiston Respublikasining milliy qonunchilik bilan belgilangan bayram kunlariga bag‘ishlab tadbirlar tashkil etish va o‘quvchilarni faol ishtirok etishga chaqirish.

6-bob. Faoliyatni tashkil etish tartibi

17. Kengash yig‘ilishlari bir oyda kamida bir marotaba o‘tkaziladi. Zarurat tug‘ilganda navbatdan tashqari yig‘ilishlar chaqirilishi mumkin.

18. Qarorlar Kengash a’zolarining ko‘pchilik ovozi (50%+1) bilan qabul qilinadi.

19. Kengash faoliyati “Kelajak” markazlari va maktab ma’muriyati bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

20. Kengash maktabning 2030-yilgacha rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda faol ishtirok etadi.

21. Kengash tomonidan o‘z faoliyati yuzasidan har chorak yakunida hisobot tayyorlanadi. Maktab ma’muriyati hamda o‘quvchilar jamoasiga taqdim etiladi.

7-bob. Shaxsiy rivojlanish va kompetensiyalar

22. Maktab maslahatchisi Kengash a’zolari uchun maxsus rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqadi va amaliyotga tatbiq etadi. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha treninglar;

debat olib borish ko‘nikmalari;

loyihalarni boshqarish asoslari;

jamoaviy ishlash va konfliktlarni hal qilish yuzasidan seminarlar.

8-bob. “Kelajak” lideri, sinf vakili va koordinatorlarni Kengash safidan chiqarish tartibi

23. “Kelajak” lideri, sinf vakili va koordinatorlar quyidagi hollarda Kengash a’zoligidan muddatidan oldin chiqarilishi mumkin:

Kengash Nizomi, ichki qoidalari yoki maktab tartib-qoidalarini muntazam yoki qo‘pol ravishda buzganida;

o‘quvchilar, pedagoglar va Kengash a’zolarining sha’ni, qadr-qimmati va huquqlarini kamsitgan, haqoratlagan, tahdid qilgan yoki bosim o‘tkazganida;

o‘quvchilar o‘rtasida nizo, ziddiyat, guruhbozlik, kamsitish yoki adovatni qasddan keltirib chiqargan yoki kuchaytirganida;

Kengashdagi vakolati yoki mavqeidan shaxsiy manfaatlari yo‘lida foydalanganida yoki Kengash nomidan ruxsatsiz foydalanganida;

Kengashning muhim vazifalari, topshiriqlari, yig‘ilishlari va tadbirlarida uzrsiz sabablarga ko‘ra muntazam ravishda ishtirok etmagan yoki topshiriqlarni bajarmaganida;

yolg‘on, asossiz yoki obro‘sizlantiruvchi ma’lumotlarni tarqatganida, shu jumladan ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarda Kengash, maktab, o‘quvchilar yoki pedagoglarning sha’ni va qadr-qimmatiga putur yetkazuvchi materiallarni tarqatganida;

maktabda xavfsiz, sog‘lom va ijobiy ma’naviy-psixologik muhitga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi xatti-harakatlarni sodir etganida;

Kengash faoliyatida adolat, xolislik, tenglik va o‘zaro hurmat tamoyillariga muntazam rioya qilmaganida.

24. Kengash a’zosini safdan chiqarishdan oldin holat xolisona o‘rganiladi, mavjud dalillar, guvohlarning ko‘rsatmalari va ishtirokchilarning tushuntirishlari inobatga olinadi.

25. Kengash a’zosini safdan chiqarish masalasi ko‘rib chiqilayotgani haqida oldindan xabar beriladi va unga o‘z fikri hamda tushuntirishlarini bildirish imkoniyati beriladi.

26. Safdan chiqarish to‘g‘risidagi qaror Kengash yig‘ilishida muhokama qilinib, bayonnoma asosida rasmiylashtiriladi.

27. Qaror qabul qilishda qoidabuzarlikning og‘irligi, takroriyligi, oqibatlari, liderning avvalgi faoliyati va tushuntirishlari hisobga olinadi. Birinchi marta sodir etilgan va og‘ir oqibatlarga olib kelmagan holatlarda ogohlantirish, tanbeh yoki boshqa tarbiyaviy choralar qo‘llanilishi mumkin.

28. Kengash safidan chiqarilgan Kengash a’zosi o‘rniga yangi a’zo belgilangan tartibda saylanadi yoki tayinlanadi.


9-bob. Hamkorlik va tarmoq aloqalari

29. Kengash respublikadagi boshqa maktablar O‘quvchilar Kengashlari bilan hamkorlik qiladi va tajriba almashinuvida ishtirok etadi.


10-bob. Yakuniy qoidalar

30. Ushbu Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida O‘quvchilar Kengashi tizimini joriy etish” bo‘yicha Ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.

“Kelajak” markazining
umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi O‘quvchilar Kengashi
TASHKILIY TUZILMASI




“Kelajak” markazining
Tuman (shahar)lardagi O‘quvchilar Kengashi
TASHKILIY TUZILMASI




Izoh: Tuman (shahar) O‘quvchilar Kengashi faoliyatini tashkil etish tuman (shahar) “Kelajak” markazining maktab maslahatchilari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi.

“Kelajak” markazlarining
Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar O‘quvchilar Kengashining
TASHKILIY TUZILMASI



Izoh: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar O‘quvchilar kengashini muvofiqlashtirish Hududiy “Kelajak” markazining O‘quvchilar Kengashi tizimini tashkil etish bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi.

“Kelajak” markazining
Respublika O‘quvchilar Kengashi
TASHKILIY TUZILMASI



Izoh: Respublika O‘quvchilar Kengashi faoliyatini tashkil etish Respublika “Kelajak” markazining O‘quvchilar Kengashi tizimini muvofiqlashtirish bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi.